

(tuzilgan joy)

yil

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda "Kafil" deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi _____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi _____ bir tarafdan va (bundan buyon matnda «Prinsipal» deb yuritiluvchi) _____ ikkinchi tarafdan, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnomada deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1..1 Mazkur shartnomaga binoan kafil, prinsipal buyurtmasi asosida _____ miqdorida _____ uchun bank kafolatini beradi, prinsipal esa, mazkur shartnomaga muvofiq ko‘rsatilgan xizmatlar uchun kafilga haq to‘laydi va benefitsiar oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajaradi.

1..2 Bank kafolati liniyasi bo‘yicha berilgan bank kafolatida, ushbu shartnomaga asosan kafil tomonidan _____ (keyingi o‘rnarda “benefitsiar”) foydasiga ochilgan kafolat liniyasi muddatida, _____ maqsadida berilgan bank kafolatlari bo‘yicha, prinsipal kafilga haq to‘laydi va taqdim qilingan kafolat bo‘yicha benefitsiar oldidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida bajaradi.

2. Shartnoma bahosi

2.1. Prinsipalning benefitsiar oldidagi (majburiyat nomi) (bundan buyon matnlarda “asosiy majburiyat” deb yuritiladi) ni _____ foizlik ta’minoti hisoblangan _____ bo‘yicha kafil benefitsiarga bank kafolati beradi.

2.2. Bank kafolati mazkur shartnomaning ta’minotga oid shartlari va bank kafolatini taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan kafilning boshqa talablari prinsipial tomonidan to‘liq bajarilgan vaqtidan e’tiboran 3 (uch) bank ish kunidan kechiktirmay «_____» 202_____ yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi.

2.3. Bank kafolat liniyasi muddatida asosiy majburiyatni bajarish yuzasidan tuzilgan shartnomada yoki tender o‘tkazish tartibida ko‘rsatilgan muddatlarga mos holatda kafolat benefitsiarga taqdim qilib boriladi hamda liniya doirasida taqdim qilingan oxirgi bank kafolatini amal qilish muddatini, bank kafolati shartnomasi imzolangan kundan boshlab o‘n ikki oydan oshmasligi ta’minlanadi.

2.4. Dastlabki taqdim qilingan kafolat bo‘yicha majburiyatları prinsipal tomonidan to‘liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar kafilga taqdim etib boriladi.

3. Tasdiqlash va kafolatlar berish

3.1 Prinsipal yuridik shaxs–tadbirkorlik subyekti bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro‘yxatdan o‘tkazilgan, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy layoqatga ega.

3.2 Prinsipal kafilga kafolat buyurtmasi, biznes-reja, buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot (2-shakl), solishtirish dalolatnomalari, auditorlik xulosasi, kredit ta’minoti turlariga oid va taqdim etilgan boshqa zarur hujjat va ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligini kafolatlaydi.

3.3 Shartnoma tuzayotgan vaqtida prinsipal xato fikrlar, yolg‘on, zo‘ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og‘ir holatlarga to‘g‘ri kelib qolishi ta’sirida emas.

3.4 Tasdiqlash va kafolatlar berish bo‘limiga prinsipal to‘liq amal qilishi lozim. Ushbu bo‘limga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda kafil prinsipalga kafolat taqdim etishdan bosh tortishga haqlidir.

4. Kafolat bo‘yicha to‘lanadigan komissiya va boshqa to‘lovlar

- 4.1 Bank kafolati hujjatlarini ko‘rib chiqqanligi uchun prinsipal kafilga kafolat summasining 1 foizi miqdorida bir marotabalik komission to‘lov to‘laydi.
- 4.2 Har bir bank kafolati xati taqdim etganligi uchun prinsipal kafilga taqdim etilgan kafolat summasidan ____ (kafolat summasidan 5 % gacha) foiz haq to‘laydi. Mazkur to‘lov ushbu shartnoma qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab, lekin bank kafolati rasmiylashtirilguniga qadar prinsipal tomonidan to‘lanadi.
- 4.3 Bank kafolati summasini ko‘paytirganligi hamda kafolat muddatini uzaytirganligi uchun prinsipal kafilga har bir taqdim etilgan kafolat summasidan ____ (kafolat summasidan 0,1 % dan 1 % gacha) foiz miqdorida bir marotabalik komission to‘lov to‘laydi.
- 4.4 Kafil tomonidan benefitsiarga kafolat summasi to‘lab berilganda, benefitsiarga o‘tkazib berilgan summani to‘lab berish bo‘yicha prinsipalga talabnomalar yuboradi. Mazkur talabnomalar prinsipal tomonidan 10 (o‘n) bank ish kuni davomida to‘liq bajarilishi lozim.
- 4.5 Kafil tomonidan kafolat summasi benefitsiarga to‘lab berilgan taqdirda, kafolat summasi to‘langan kundan boshlab, mazkur summa kafilning hisobvarag‘iga qaytarilguniga qadar prinsipal kafilga to‘lov amalga oshirilgan kundagi {фойз miqdori yoziladi} stavkasi miqdorida to‘lab berilgan valuta birligida foiz to‘laydi.
- 4.6 Kafil tomonidan kafolat summasi benefitsiarga xorijiy valutada to‘lab berilgan taqdirda, prinsipal to‘lab berilgan kafolat summasini kafilga, benefitsiarga to‘lab bergan xorijiy valutada qaytaradi.

5. Prinsipalning huquq va majburiyatları

5.1 Prinsipal quyidagi huquqlarga ega:

- 5.1.1 bank kafolati o‘z vaqtida berilishi yuzasidan kafilga o‘zining qonuniy talablarini qo‘yish;
- 5.1.2 garov ta’minti yuzasidan baholovchi va sug‘urta kompaniyasini o‘z ixtiyoriga asosan tanlashga;
- 5.1.3 kafolatdan foydalanish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha kafilga murojaat qilish;
- 5.1.4 shartnoma va qo‘srimcha shartnomalarni imzo qo‘ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o‘zi bilan olib ketish;
- 5.1.5 kafildan kafolat bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to‘g‘risida maslahatlar olish;
- 5.1.6 qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o‘tkazish orqali, qo‘llash;
- 5.1.7 benefitsiar tarafidan kafilga da‘vo bildirilganda ishda ishtirot etish.
- 5.1.8 bank kafolati bo‘yicha da‘vo ko‘rib chiqilayotganda benefitsiarning talablariga qarshi o‘zining qonuniy e’tirozlarini bildirish.
- 5.1.9 kafolat majburiyatları yuzasidan ma’lumot olish bo‘yicha kafilga murojaat qilish.

5.2 Prinsipal quyidagilarga majburdir:

- 5.2.1 asosiy majburiyat bo‘yicha benefitsiar oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish.
- 5.2.2 asosiy majburiyatlar to‘liq ijro etilganida, bu haqida kafilni yozma ravishda xabardor

qilish.

5.2.3 kafil oldidagi majburiyatlarini, shu jumladan mazkur shartnomaning barcha shartlarini o‘z vaqtida va to‘la hajmda bajarish.

5.2.4 har oyda asosiy majburiyat shartlarining bajarilishi, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘yicha barcha ma’lumotlarni, shuningdek, kafil tomonidan talab qilingan boshqa ma’lumot va hujjatlarni kafilga taqdim etib borish.

5.2.5 kafilning xizmatlari uchun mazkur shartnomaga asosan o‘z vaqtida va to‘liq hajmda haq to‘lash;

5.2.6 prinsipial tomonidan o‘zining asosiy yoki ikkilamchi hisob raqamini kafilning yozma roziligidisiz boshqa bankka olib chiqib ketishidan oldin kafil oldidagi barcha majburiyatlarini to‘liq bajarilishini ta’minalash;

5.2.7 prinsipial tomonidan o‘zining asosiy yoki ikkilamchi hisob raqamini kafilning yozma roziligidisiz boshqa bankka olib chiqib ketishidan oldin, agarda kafilning benifitsiarga taqdim qilgan kafolat bo‘yicha uni oldida majburiyat yuzaga kelmagan bo‘lsa, kafil tomonidan taqdim qilingan kafolat yuzasidan kelajakda vujudga kelishi mumkin majburiyatlardan kafilni ozod qilishini (kafolatni yon berish, kafolat xati aslini benefitsiardan kafilga qaytarish va boshqa qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan usullar bilan) ta’minalash.

5.2.8 kafolat summasining bir yuz yigirma besh foizidan kam bo‘lmagan qiymatdagi likvidli bo‘lgan ta’minot turlarini taqdim qiladi. Valuta kursining o‘zgarishi, monitoring, undiruv davomida yoki boshqa sabablarga ko‘ra prinsipial tomonidan taqdim qilingan ta’minot kafolat majburiyatlarini qoplashga yetarli emas, deb topilgan taqdirda, kafolat summasining 125/130 foizi miqdoriga yetgunga qadar qo‘sishmcha ta’minot bilan ta’minalaydi hamda uni tegishli tartibda rasmiylashtirilishini to‘liq ta’minalaydi.

5.2.9 faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida ekologik va ijtimoiy menejment siyosati talablariga amal qilish majburiyatini oladi.

6. Kafilning huquq va majburiyatları

6.1 Kafil quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1 prinsipialdan har oyda asosiy majburiyat shartlarining bajarilishi haqidagi, shuningdek boshqa ma’lumotlar va hujjatlarni berishni talab qilish.

6.1.2 asosiy majburiyatning bekor qilinganligi yoki o‘z kuchini yo‘qotganligi aniqlansa, ushbu bank kafolati shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.

6.1.3 agar benefitsiarning talabi yoki unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelmasa yoxud kafilga kafolatda belgilab qo‘yilgan muddat tamom bo‘lgandan keyin taqdim etilsa, uning talabini bajarishni rad etish.

6.1.4 prinsipalning moliya-xo‘jalik faoliyatini, shuningdek, garov mulkinining holatini monitoring qilib borish, garov mulkiga zarar yetganda, shikastlanganda va boshqa hollarda garov mulkinining almashtirilishini prinsipialdan talab qilish.

6.1.5 prinsipal tomonidan kafolat bo‘yicha yetkazilgan zarar miqdori garovdagi mol-mulkarni sotish hisobidan qoplanmaganda, kafil mazkur qarzlarni (zararni) prinsipalning boshqa mol-mulkari hisobidan undirib olish huquqiga ega.

6.1.6 mazkur shartnoma va amalagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda majburiyatni muddatidan oldin undirish choralarini ko‘rishga haqli.

6.2 Kafilning majburiyatları quyidagilar:

6.2.1 benefitsiar tomonidan yozma talabnomasi taqdim etilganda bu haqida darhol prinsipalni xabardor qiladi va unga talabning nusxasini barcha tegishli hujjatlari bilan birga taqdim qiladi;

6.2.2 kafil prinsipal tomonidan shartnomaga asosan kafolat bo'yicha majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kafolat bo'yicha garovda turgan mulkni taqiqdan chiqarish va garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestridan chiqarish choralarini ko'radi;

6.2.3 benefitsiar tomonidan taqdim etilgan yozma talabnomani 10 (o'n) bank ish kuni muddatda ko'rib chiqadi va ko'rib chiqish natijasi haqida prinsipal va benefitsiarni xabardor qiladi;

6.2.4 asosiy majburiyat batamom yoki uning tegishli qismi bajarilganligi yoxud boshqa asoslarga ko'ra bekor bo'lganligi yoki haqiqiy emas deb topilganligi kafilga ma'lum bo'lib qolsa, u bu haqida darhol benefitsiarga va prinsipalga xabar beradi;

6.2.5 benefitsiar tomonidan kafilga da'vo bildirilganda, prinsipalni ishda ishtirok etish uchun jalb qiladi.

7. Kafil majburiyatlarning chegaralari

7.1 Kafilning majburiyatlari shartnomaning 2.1-bandida ko'rsatilgan kafolat summasi bilan chegaralanadi. Asosiy majburiyat bo'yicha kelib chiqadigan boshqa to'lovlar (neustoyka, zarar, ustama, foiz, sud xarajatlari va boshqa majburiyatlar) bo'yicha kafil javobgar bo'lmaydi.

7.2 Asosiy majburiyat bo'yicha benefitsiar foydasiga prinsipal yoki kafil tomonidan har qanday to'lov amalga oshirilganda, kafilning majburiyatlari amalga oshirilgan to'lovlar summasiga mutanosib ravishda kamayadi.

8. Prinsipal majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash

8.1 Mazkur shartnomaning ta'minoti sifatida prinsipal kafilga quyidagi ta'minot turini taqdim qiladi:

8.2 Ta'minotga oid bitimlar qonunchilikda belgilangan tartibda, yozma shaklda rasmiylashtirilishi, qonun hujjatlarda belgilangan hollarda esa notarial tasdiqlanishi va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Bunda barcha rasmiylashtirish xarajatlari prinsipal hisobidan amalga oshiriladi.

8.3 Shartnomada ko'zda tutilgan to'lovlar, neustoykalar va boshqa to'lovlarni undirishni kafil prinsipalning kafilda va boshqa kredit tashkilotlarida ochilgan asosiy, ikkilamchi hisob raqamlariga to'lov talabnomasi yoki memorial orderni qo'yish asosida pul mablag'larini hisobdan chiqarish orqali amalga oshirishga haqli.

8.4 Qo'yilgan talabnama mazkur shartnomaga asosan prinsipal tomonidan akseptlangan hisoblanadi.

9. Kafolatni chaqirib olish asoslari

9.1 Bank kafolati amaldagi qonun hujjatlari yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan asoslarga ko'ra va tartibda, shuningdek quyidagi hollarning yuz berishi natijasida chaqirib olinishi mumkin:

- prinsipalning moliyaviy holati yomonlashishi (bu holat zarar ko'rib ishlashi yoki balansining nolikvid holga kelishi bilan yuzaga keladi);
- muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlarining vujudga kelishi;
- kredit tarixida salbiy holatlarning yuzaga kelishi;
- benefitsiarning o'zgarishi.

10. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish asoslari

10.1 Mazkur shartnama O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda, shuningdek mazkur shartnomada nazarda tutilgan asoslarga ko'ra o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

10.2 Mazkur shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilib, ikki taraflama vakolatli shaxslar tomonidan tasdiqlangandagina haqiqiy hisoblanadi.

10.3 Kafilning benefitsiar oldidagi majburiyatlari quyidagi xollarda bekor bo'ladi:

- a) kafolat berilgan summa benefitsiarga to'langanda;
- b) kafolatda belgilangan muddat tamom bo'lganda;
- c) benefitsiar kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechganda va kafolat xatini kafilga qaytarib berganda;
- d) benefitsiar kafilni uning majburiyatlaridan ozod qilishi haqida yozma ariza berish yo'li bilan kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi oqibatida.

10.4 Mazkur shartnomaning 12 bo'lim yoki 12.3-bandlarida ko'rsatilgan hollar yuzaga kelgan taqdirda, kafil kafolat xatini chaqirib olish bilan bir vaqtida shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin. Bu holda kafil prinsipal va benefitsiarni bu haqida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay xabardor qiladi.

11. Shartnama bo'yicha javobgarlik

11.1 Mazkur shartnomada boshqacha belgilangan bo'lmasa, taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida belgilanadi.

11.2 Kafil benefitsiarga kafolat xatini berishni asossiz ravishda kechiktirgan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun kafolat summasining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

11.3 Prinsipal kafil tomonidan benefitsiarga to'lab berilgan kafolat summasini shartnomaning 4.4-bandida qayd qilingan muddatda qaytarmagan taqdirda, muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

12. Alovida shartlar

12.1 Mazkur bank kafolati bo'yicha benefitsiarga tegishli bo'lgan kafilga talab qo'yish huquqi boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas.

12.2 Mazkur shartnomada ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega, birinchi nusxasi kafilga, ikkinchisi prinsipalga beriladi.

12.3 Qat'iy hisobda turuvchi maxsus kafolat blankasida taqdim etilmagan bank kafolatlari haqiqiy hisoblanmaydi.

12.4 Prinsipalning tegishli so'rovi bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida prinsipal tomonidan berilgan ariza va unga kafolat berilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda bir ish kuni ichida kafillik shartnomada bo'yicha prinsipalning majburiyatlari to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

12.5 Garov predmeti sifatida taqdim etilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undiriladi va u ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinadi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

12.6 Shartnomada bajarilishida taraflar mazkur shartnomada shartlariga hamda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga tayanishadi.

12.7 Mijozga bank xizmatini taklif kilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so‘ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma’lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o‘tkazishga mijoz o‘z rozilagini beradi.

13. Korrupsiyaga qarshi kurashish

13.1 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

13.2 Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo‘yicha taklifini rad qilishi lozim.

13.3 Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog‘liq korruption harakat sodir etilganligi to‘g‘risida ma’lumot, shubha, shubhaga asos bo‘luchchi dalilga ega bo‘lsa, bu to‘g‘risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

13.4 Xabarni olgan tomon haqiqatda korruption harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to‘g‘risida tasdiqqa ega bo‘lguncha ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni to‘xtatib turish huquqiga ega.

13.5 Pora berish evaziga ikkinchi tomon vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o‘ziga og‘dirib olgan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

14. Bitimning kuchga kirishi, o‘zgartirish va bekor qilish tartibi

14.1 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi kafilda, ikkinchi nusxasi prinsipalda saqlanadi. Prinsipal yoki uning vakolatli vakiliga kafillik shartnomasi imzolangan kunda shartnomaning bitta asl nusxasini taqdim etiladi.

14.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

14.3 Shartnomaga kiritilayotgan barcha o‘zgarish va qo‘srimchalar yozma shaklda shartnomaga tegishli o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqidagi kelishuvni tuzish orqali rasmiylashtiriladi.

15. Maxfiylik

15.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma’lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

15.2 Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma’lumotlarni axborot egasining yozma roziligesiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

15.3 Mazkur qoida shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 (uch) yil davomida amal qiladi.

15.4 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to‘liq hajmda qoplaydi.

15.5 Kafil mazkur shartnomaga asosan o‘z huquq va manfaatlari himoya qilish, talab qilish maqsadida, prinsipal kafilga o‘zi to‘g‘risidagi har qanday ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga

oshkor etish (topshirish) uchun so‘zsiz roziligin mazkur shartnomaga asosan bildirgan hisoblanadi.

15.6 Prinsipal kafilga shartnomada ko‘rsatilgan yoki shartnomaga tuzilishi va bajarilishida kafilga taqdim etgan o‘zining barcha ma’lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligin tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnomaga bo‘yicha huquqiy vorislik tartibida kafilning huquq va majburiyatları boshqa shaxsga o‘tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi.

16. Fors-major

16.1 Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lмаган tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to‘lov hamda ta’midot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta’midot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tomonidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtida taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaga bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladilar.

16.2 Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtidan boshlab, 3 bank kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo‘lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (sms va mms xabarlari bundan mustasno).

16.3 Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo‘ladilar.

16.4 Yuzaga kelgan fors-major holatlari bartaraf bo‘lgandan so‘ng, mazkur shartnomaga shartlari to‘liq o‘z kuchiga ega bo‘ladi.

17. Nizolarni hal qilish tartibi

17.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar.

17.2 O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lмаганда, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnama yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnama yoki ogohlantirish xatida ko‘rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

17.3 Talabnama yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

17.4 Tinch yo‘l bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda filial/bo‘linma joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

18. Taraflarning qayd etish ma'lumotlari va imzolari

Kreditor: CHEKI "Hamkorbank" ATB _____ bank xizmatlari ofisi Manzil: MFO: 00083 STIR: 200242936 Hisob raqam: 16103000500000083001 Aloqa markazi: 0 (800) 1-200-200, 1256 E-mail: contact@hamkorbank.uz Boshqaruvchi: _____ M.O'.	Qarz oluvchi: Qarz oluvchi nomi: Manzil: MFO: STIR: Hisob raqam: Rahbari: Bosh hisobchi:
---	---